O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Ashurov Behzodbek Orifjon O‘g‘li

2026 - yil 26 - martdagi 276427 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Shahrixon tumani Karnaychi MFY hududida 7 qavatli turar-joy bino-inshootlari qurish (7-14)
Buyurtmachi: SAPFIR SADAF SERVIS MCHJ
Bosh loyihachi: "ANDIJON FUQAROLOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “SAPFIR SADAF SERVIS” MChJ
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 113594

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. “Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi” 26.12.2024-yildagi №YU-1233909-sonli bayonnoma.

1.2. Shahrixon tumani hokimining 29.08.2024-yildagi №275-1-28-Q/24-sonli qarori.

1.3. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 24.01.2025-yilda berilgan №1703-1703230-212951-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.4. Buyurtmachi “SAPFIR SADAF SERVIS” MChJ tomonidan tasdiqlangan hamda bosh loyixachi “ANDIJON FUQAROLOYIHA” MChJ tomonidan kelishilgan 2025-yildagi loyixa topshirig'i.

1.5. Buyurtmachi “SAPFIR SADAF SERVIS” MChJ hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida loyiha-tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 09.02.2026-yildagi №23-04/2026-sonli shartnoma.

1.6. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 03.02.2026-yildagi №251384984-sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino					
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	Ko`p qavatli turar-joy	7	629.0	3669.72	13963.8
Jami:			**629**	**3669.72**	**13963.8**

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Tashqi xavoning minus 14 C li qurilish tumani

Qordan tushadigan yuk - 50 kg/mI

Shamolning ta'sir kuchi - 38 kg/mI

Yozgi xisobiy xavoning issiqlik xarorati +33 C.

Maydon seysmikligi – 8 ball.

Seysmik xossalari bo`yicha tuproq toifasi – III (uch).

3.2. Bosh reja:

Shahrixon tumani xududida ilova etilgan bosh reja asosida “7 qavatli turar-joy” bino va inshootlari qurilishi Shahrixon tumani, Karnaychi MFY xududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun “Elektron-onlayn auksion natijalari to`g`risidagi” 26.12.2024-yildagi №YU-1233909-sonli bayonnomaga asosan yer maydoni qurilish ishlari uchun ruxsat berilgan. Bosh reja mavjud tarmoqlar va xudud past-tekisliklarini xisobga olgan xolda ishlangan. Maydon shimol tomondan – ichki yo`l va ko`p qavatli turar-joy bilan, janub tomondan – ichki yo`l va ko`p qavatli turar-joy bilan, sharq tomondan – ichki yo`l va ko`p qavatli turar-joy bilan, g‘arb tomondan – ichki yo`l va ko`p qavatli turar-joy bilan chegaralangan. Bosh rejaga muvofiq loyihaviy turar-joy binosi (7-14), bolalar maydonchasi, o`rindiq, avtoturargoh, chiqindi to`plash qutilari, yong`inga qarshi gidrant joylashgan.

Bosh reja rel`ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

***Loyihaviy “Ko`p qavatli turar-joy” binosi*** – 7 qavatli, yerto‘lali ko‘p xonadonli turar-joy binosi to`rt burchak shaklida, rejada o`qlari bo`yicha o`lchami 33,8x18,3 metr. Bino yerto`la qavatining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,19 metr. Binoning birinchi va yuqori qavatlarining poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 2,76 metr.

Binoning yarim yerto’la qavatida texnik qavat joylashgan bo`lib, umumiy maydoni 559,5 m² ni tashkil qiladi.

Binoning 1-qavatida umumiy maydoni 375,28 m² dan, yashash maydoni 195,40 m² dan iborat 8 ta 2 xonali xonadon hamda umumiy maydoni 70,01 m², yashash maydoni 25,44 m² dan iborat 2 ta bir xonali xonadon, jami 10 dona xonadon joylashgan.

Binoning 2-7 qavatida umumiy maydoni 2838,84 m², yashash maydoni 1626,90 m² dan iborat ikki xonali 60 ta xonadon joylashgan.

Xonadonlar oldi maydonining umumiy maydoni, zinapoya kataklari, lift maydonining umumiy maydoni - 161,66 m² iborat. Turar-joy binosida umumiy xonadonlar soni - 70 tadan iborat. Binoning umumiy maydoni – 3669,72 m², yashash maydoni – 1900,24 m² tashkil qiladi.

Turar-joy binosi xojatxona, yuvinish-cho‘milish xonasi, oshxona, umumiy xona va yotoqxona va mexmonxona, xonadonlar oldi maydoni, zinapoya, lift oldi maydoni, balkon va

yo‘laklardan iborat.

Ichki pardozlash ishlari - devor va shiftlar yuqori sifatli vodoemulsiya bo`yog‘i bilan bo‘yash, sanitar xonalari devorlari keramik plitka bilan pardozlash, kirish va umumiy yo`lak devorlarining pastki qismi moyli bo`yoq bilan bo`yash ko‘zda tutilgan.

Pol – honadonlarda laminat, sanitar xonalarda keramik plitka, balkon, umumiy yo`lak va zinapoyalarda keramogranit pol qoplamasi qoplanadi. Pol issiqlik qatlami penopleksdan yotqiziladi. Polda plintus sifatida plastik, keramik plitka qoplanadi.

Tashqi pardozlash ishlari - bino tashqi devor yuzasini “travertin” bilan pardozlash ko‘zda tutilgan. Sokol yuzasi keramogranit bilan qoplanadi. Tashqi devorlarning issiqlik himoyasi bazalt tolali plitalari bilan qoplanadi.

Derazalar - PVX profildan, vitrajlar – alyumin profildan o`rnatiladi. Eshiklar - metal, MDF va alyumin profildan o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Ichki deraza osti tokchasi (внутренный подоконник) - PVX profildan o`rnatish kerak. Tashqi deraza osti tokchasi (наружный подоконный слив) - ruxlangan po'latdan qoplanadi.

Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” ning 3.1-jadvali 2-punkti bo`yicha xisoblar asosida loyihalangan.

Binoning fazoviy bikrligi gorizontal yo'nalishda qavatlararo yopmalar bilan birgalikda, bo`ylama yo`nalishda temirbeton devorlar bilan birgalikda ishlash xisobida bajarilgan. Konstruksiyalar tasnifi: Poydevor - quyma temirbetondan. Fundament devorlari - quyma temir-betondan. Devorlar - 200 mm qalinlikda monolit temir-beton va gazablok, kvartiralarni ajratuvchi devorlar 200 mm qalinlikdagi monolit temir-beton va gazablok devorlardan iborat. Devorlarni mustaxkamligini oshirish maqsadida metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Pardadevorlar - qalinligi 120 mm qalinlikda gazobetondan, metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Zinapoyalar - quyma temirbetondan. Lift shaxtasi - quyma temirbetondan. Orayopma va tomyopmalar - quyma temir-betondan bajariladi. Tom qismi – tekis qoplama bo`lib, tom yopma yumshoq qatlamli, filizola va qoraqog‘ozli. Tomdan suv tushirish quvurlari - ruxlangan po'latdan qilinadi, po'lat materiali qalinligi 0.7 mm. Quvurlar dumaloq shaklli, □ 150 mm bo'lib tik, vertikal to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak. Otmostka - quyma betondan bajariladi.

Bundan tashqari ishchi loyixa-smeta hujjatida bolalar maydonchasi, o`rindiq, chiqindi qutisi, yong`in gidranti, avtoturargoh, muxandislik tarmoqlari, nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko‘zda tutilgan.

Ishchi loyihada;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ish turlari.

- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Issiq suv ta’minoti issiqlik punktidan va bino va inshootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari maqsadida quyosh batareyasi kollektoridan qo‘shimcha issiq suv ta`minlanishi ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`niy, quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.

- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko`zda tutilgan.
- Tom yompasining issiqlik himoyasi - mineralvatadan qoplanadi.
- Pol issiqlik qatlami – penopleksdan qoplanadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilindi va maxsus belgilar o`rnatildi;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- binoga kirish qismida ko’tarish moslamasi;
- binoga kirish qismida zinalarga tutqichlar;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplamalar qoplandi;
- eshiklar chekkasiga kontrast rangli lentalar re’jalashtirildi;
- kirish eshigidagi kontrast belgi, sariq doira d=200mm;
- sirpanishga qarshi alyumin pol profili;
- nogironlar uchun taktil piktogramma;
- taktil tovushli belgilar, ko’rsatkichlar 150x300mm;
- xona to’g’risida ma’lumot olish taxtasi;
- mnemonik diagramma;
- yuqori qavatlarga chiqish uchun lift.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ob`ektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 24.01.2025-yilda berilgan №1703-1703230-212951-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig’iga muvofiq hal qilinadi:

- Suv ta'minoti - “Andijon suv ta`minoti” AJ ning 22.09.2025-yildagi №008-sonli texnik shartiga muvofiq;
- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialining 11.02.2026-yildagi №03231165200-sonli texnik shartiga muvofiq hal qilinadi.

Issiqlik va shamollatish tizimi:

Issiqlik ta’minoti tashqi issiqlik tarmoqlaridan amalga oshiriladi. Isitish tizimi pastdan tarqaluvchi, issiqlik uzatilishiga qarab yotqizilgan, polipropilen va po‘lat quvurlar qabul qilingan. Isitish jihozi sifatida bimetall radiatorlar qo‘llanilgan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

Ichimlik suvi, shaxar ichimlik suvi tarmogidan rejalashtirilgan. Issiq suv ta’minoti elektr suv isitgichlardan va quyosh suv isitish kollektorlaridan amalga oshiriladi. Polipropilen quvur qo‘llanilgan. Ichki oqova suv tarmog‘i o‘z oqimi bilan oquvchi, PVX plastmassa quvur bilan loyihalashtirilgan.

Elektr ta`minoti:

Ushbu elektr qismi ShNQ 2.04.17-2024, ShNQ 2.08.01-2019, ShNQ 2.01.05-2024 va PUE ga muvofiq loyihaning arxitektura-qurilish qismining vazifalari asosida amalga oshirildi. Elektr ta'minotining ishonchliligi nuqtai nazaridan turar-joy binolari II toifali iste'molchilarga tegishli. Binolarning elektr energiya iste'mol quvvatlari:

VRU №1:

Hisobiy quvvat - Ph-89,36 kW;
Hisobiy tok - Ih-148,93 A.
VRU №2:
Hisobiy quvvat - Ph-98,19 kW;
Hisobiy tok – Ih – 163,65 A.
Kvartiralarning ta'minot liniyalari ko'targichlarining loyihaviy yuklari, shuningdek kirishdagi loyihaviy yuklar ShNQ 2.04.17-2019, 2-jadvalga muvofiq 13-bandning eslatmalarini hisobga olgan holda, har bir xonadonning solishtirma yukiga va kvartiralar soniga qarab belgilanadi.
Kirish-tarqatish qurilmasi sifatida AUO blokli VRU1-23-55UXL4 seriyasi qabul qilindi. Turar-joy binosida elektr energiyasini hisobga olish EX-518 tipidagi elektron hisoblagich bilan ta'minlanadi. Umumiy maishiy iste'molchilarni hisobga olish VRU ning kirish tarqatish qurilmasiga o'rnatilgan elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi. Har bir qavatda o'rnatilgan ShE 3501 qavat shitlari EX-18 tipidagi elektr hisoblagichlari va UZO tipidagi himoya uzish qurilmalari bilan birgalikda qavat shiti sifatida qabul qilinadi. Xonadon shitlari sifatida bir fazali elektron to'xtatuvchilari bo'lgan ShRN tipidagi shitlar qabul qilindi. Qavat shitlariga magistral tarmoqni podvaldagi kabel yotqizgichlari va ko'tariluvchi qavslar bo'ylab VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi. Zinapoyalarni va lift oldi yo'laklarini ishchi yoritish uchun elektr ta'minoti tarmog'i devorlar bo'ylab ko'tariluvchi gofra trubalardagi VVGng kabeli bilan amalga oshiriladi.
Bino tomida kuvvati 15kVt bulgan quyosh fotoelektr stansiyasi o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 03.02.2026-yildagi №251384984-sonli xulosasi.
5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2026-yil 20-yanvarda berilgan №01-02/03-7373-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **16 617 520 833** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **51 174 331** so'mga oshirilib,
16 668 695 164 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **13 517 520 987** so'm
Asbob-uskunalar: **1 365 242 552** so'm
QQS: **1 785 931 625** so'm
6.1. Loyixa-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.
6.2. Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.
6.3. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.4. Ekpertizaga oid ko‘rib chiqish jarayonida ishchi loyihaning bo'limlari yuzasidan berilgan e'tiroz va kamchilliklarni to'liq bartaraf etish lozim.
6.5. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati

hududiy boshqarmasi majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 03.02.2026-yildagi №251384984-sonli xulosasida arxitekturaviy yechimlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan.

6.6. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.

6.7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, obyekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligi inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.9. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan kamchillik va tavsiyalar buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi.

6.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qat`iy rioya etilsin.

6.11. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.

6.12. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

6.13. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024 yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda loyihalanishi tavsiya etiladi.

6.14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

6.15. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 16 617 520 833 so'mni tashqil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 51 174 331 so'm o`zgargan ish hajmlari hisobidan ortdi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyixa bo`yicha; “Shahrixon tumani, Karnaychi MFY hududida “7 qavatli turar-joy” bino va inshootlari qurilishi (7-14)”, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Qurilish maydoni	- 629,0 m²;
Umumiy maydon	- 3669,72 m²;
Yashash maydon	- 1900,24 m²;
Qurilish hajmi	- 13963,8 m3;
Me'yoriy mehnat sarfi	- 105 604,98 odam-soat
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 16 668 695 164 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Primqulov Raximjon Ibragimjonovich, Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Madmarov Baxtiyor Baxodirovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Egamov Javlon Naimjanovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **SADIQOV ALISHER ODILJONOVICH**